



ISSN: 3060-4613



MAKTABGACHA  
VA MAKTAB  
TA'LIMI VAZIRLIGI



№11  
2025

- 13.00.00 Pedagogika fanlari
- 13.00.01 Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta'limotlar tarixi
- 13.00.02 Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (sohalar bo'yicha)
- 13.00.03 Maxsus pedagogika
- 13.00.04 Jismoniy tarbiya va sport mashg'ulotlari nazariyasi va metodikasi
- 13.00.05 Kasb-hunar ta'limi nazariyasi va metodikasi
- 13.00.06 Elektron ta'lim nazariyasi va metodikasi (ta'lim sohaları va bosqichlari bo'yicha)
- 13.00.07 Ta'limda menejment
- 13.00.08 Maktabgacha ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi
- 13.00.09 Ijtimoiy pedagogika
- 07.00.00 Tarix fanlari
- 19.00.00 Psixologiya fanlari
- 01.00.00 Fizika-matematika fanlari
- 02.00.00 Kimyo fanlari
- 03.00.00 Biologiya fanlari
- 09.00.00 Falsafa fanlari
- 10.00.00 Filologiya fanlari
- 11.00.00 Geografiya fanlari

# M

# AKTABGACHA VA AKTAB TA'LIMI

Pedagogika, psixologiya fanlariga ixtisoslashgan ilmiy jurnal

PSIXOLOGIYA YO'NALISHI



# MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI



Elektron nashr. 20 sahifa,  
noyabr, 2025-yil.

## **BOSH MUHARRIR:**

Karimova E'zoza Gapijranovna – O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta'limi vaziri

## **BOSH MUHARRIR O'RINBOSARI:**

Ibragimova Gulsanam Ne'matovna – Pedagogika fanlari doktori, professor

## **TAHRIRIYAT KENGASHI A'ZOLARI**

*Ibragimov X.I. – pedagogika fanlari doktori, akademik*  
*Shoumarov G'.B. – psixologiya fanlari doktori, akademik*  
*Qirg'izboyev A.K. – Tarix fanlari doktori, professor*  
*Jamoldinova O.R. – pedagogika fanlari doktori, professor*  
*Sharipov Sh.S. – pedagogika fanlari doktori, professor*  
*Shermuhhammadov B.Sh. – pedagogika fanlari doktori, professor*  
*Ma'murov B.B. – pedagogika fanlari doktori, professor*  
*Madraximova F.R. – pedagogika fanlari doktori, professor*  
*Kalonov M.B. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor*  
*Nabiyev D.X. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor*  
*Qo'ldoshev Q. M. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor*  
*Ikramxanova F.I. – filologiya fanlari doktori, professor*  
*Ismagilova F.S. – psixologiya fanlari doktori, professor (Rossiya)*  
*Stoyuxina N.Yu. – psixologiya fanlari nomzodi, dotsent (Rossiya)*  
*Magauova A.S. – pedagogika fanlari doktori, professor (Qozog'iston)*  
*Rejep O'zyurek – psixologiya fanlari doktori, professor (Turkiya)*  
*Wookyu Cha – Koreya milliy ta'lim universiteti rektori (Koreya)*  
*Polonnikov A.A. – psixologiya fanlari nomzodi, dotsent (Belarus)*  
*Mizayeva F. O. – Pedagogika fanlari doktori, dotsent*  
*Baybayeva M.X. – pedagogika fanlari doktori, professor*  
*Muxsiyeva A.T. – pedagogika fanlari doktori, professor*  
*Aliyev B. – falsafa fanlari doktori, professor*  
*G'afurov D. O. – falsafa fanlari doktori (Phd)*  
*Shomurodov R.T. – iqtisodiyot fanlari nomzodi (PhD), dotsent*  
*Mirzayeva F. O. – pedagogika fanlari doktori (DSc), dotsent*  
*Jalilova S.X. – psixologiya fanlari nomzodi (PhD), dotsent*  
*Bafayev M.M. – psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent*  
*Usmonova D.I. – Samarqand iqtisodiyot va servis institute dotsenti*  
*Saifnazarov I. – falsafa fanlari doktori, professor*  
*Nematov Sh.E. – pedagogika fanlari nomzodi (PhD)*  
*Tillashayxova X.A. – psixologiya fanlari nomzodi (PhD), dotsent*  
*Yuldasheva F.I. – pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent*  
*Doniyorov S. M. – "Yangi O'zbekiston" va "Pravda Vostoka" gazetalarini tahririyati DM bosh muharriri, O'zbekiston Respublikasida xizmat ko'rsatgan jurnalist, filologiya fanlari nomzodi (PhD)*  
*Yuldasheva D.B. – filologiya fanlari bo'yicha falsafa (PhD) doktori, dotsent*  
*Tangriyev A. T. – Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti kafedra professori*  
*Ashurov R. R. – psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent*  
*Panjiyev M. A. – Qashqadaryo viloyati Maktabgacha va maktab ta'limi boshqarmasi boshlig'ining birinchi o'rinbosari*  
*Xudayberganov N. A. – Xorazm Ma'mun akademiyasi Tabiiy fanlar bo'limining katta ilmiy xodimi, biologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)*

**Muassis:** "Tadbirkor va ishbilarmon" MChJ

**Hamkorlarimiz:** O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligi, O'zbekiston milliy pedagogika universiteti

#### EDITOR-IN-CHIEF:

Karimova E'zoza Gapirzhanovna – Minister of Perschool and School Education of the Republic of Uzbekistan

#### DEPUTY EDITOR-IN-CHIEF:

Ibragimova Gulsanam Ne'matovna – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

#### EDITORIAL BOARD MEMBERS:

**Ibragimov X.I. – Doctor of Pedagogical Sciences, Academician**

**Shoumarov G. B. – Doctor of Psychological Sciences, Academician**

**Qirg'izboyev A. K. – Doctor of Historical Sciences, Professor**

**Jamoldinova O.R. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor**

**Sharipov Sh.S. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor**

**Shermuhhammadov B.Sh. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor**

**Ma'murov B.B. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor**

**Madraximova F.R. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor**

**Kalonov M.B. – Doctor of Economic Sciences, Professor**

**Nabiyev D.X. – Doctor of Economic Sciences, Professor**

**Koldoshev K. M. – Doctor of Economic Sciences, Professor**

**Ikramxanova F.I. – Doctor of Philological Sciences, Professor**

**Ismagilova F.S. – Doctor of Psychological Sciences, Professor (Russia)**

**Stoyuxina N.Yu. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor (Russia)**

**Magauova A.S. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor (Kazakhstan)**

**Rejep O'zyurek – Doctor of Psychological Sciences, Professor (Turkey)**

**Wookyu Cha – President of the National University of Education, Korea (South Korea)**

**Polonnikov A.A. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor (Belarus)**

**Mizayeva F. O. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor**

**Baybayeva M.X. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor**

**Muxsiyeva A.T. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor**

**Aliyev B. – Doctor of philosophy, professor**

**Gafurov D. O. – Doctor of Philosophy (PhD)**

**Shomurodov R.T. – Candidate of Economic Sciences (PhD), Associate Professor**

**Mirzayeva F. O. – Doctor of Pedagogical Sciences (DSc), Associate Professor**

**Jalilova S.X. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor**

**Bafayev M.M. – Doctor of Philosophy in Psychological Sciences (PhD), Associate Professor**

**Usmonova D.I. – Associate Professor, Samarkand Institute of Economics and Service**

**Saifnazarov I. – Doctor of philosophy, professor**

**Nematov Sh.E. – Candidate of Pedagogical Sciences (PhD)**

**Tillashayxova X.A. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor**

**Yuldasheva F.I. – Doctor of Philosophy in Pedagogical Sciences (PhD), Associate Professor**

**Doniyorov S. M. – Editor-in-Chief of the Editorial Board of the newspapers "Yangi Uzbekiston" and "Pravda Vostoka", Honored Journalist of the Republic of Uzbekistan, Candidate of Philological Sciences (PhD)**

**Yuldasheva D.B. – Doctor of Philosophy (PhD) in Philological Sciences, Associate Professor**

**Tangriyev A.T. – is a professor of Tashkent State University of Economics**

**Ashurov R. R. – Doctor of Philosophy (PhD) in Psychology, Associate Professor**

**Panjiyev M. A. – First Deputy Head of the Department of Preschool and School Education of the Kashkadarya Region**

**Khudaiberganov N. A. – Senior Researcher of the Department of Natural Sciences of the Khorezm Mamun**

**Academy, Doctor of Philosophy (PhD) in Biological Sciences**

“Maktabgacha va maktab ta’limi” jurnali O‘zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasining quyidagi qarorlariga asosan pedagogika va psixologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) hamda fan doktori (DSc) ilmiy darajasiga talabgorlarning dissertatsiyalaridagi asosiy ilmiy natijalarni chop etish uchun milliy ilmiy nashrlar ro‘yxatiga kiritilgan:

Pedagogika fanlari bo‘yicha: OAK Kengashi tavsiyasi (26.08.2024-y., №11-05-4381/01) asosida:

- Ekspert kengashi (29.10.2024-y., №10)
- Rayosat qarori (31.10.2024-y., №363/5)

Psixologiya fanlari bo‘yicha: Toshkent davlat pedagogika universiteti murojaatiga asosan OAK tavsiyasi (24.04.2025-y., №11-05-2566/01):

- Ekspert kengashi (25.05.2025-y., №10)
- Rayosat qarori (08.05.2025-y., №370/5)

“Maktabgacha va maktab ta’limi”  
jurnali

26.09.2023-yildan

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti  
Administratsiyasi huzuridagi Axborot  
va ommaviy kommunikatsiyalar  
agentligi tomonidan **№C-5669363**  
reyestr raqami tartibi bo‘yicha  
ro‘yxatdan o‘tkazilgan.

Litsenziya raqami: **№136361**



# MUNDARIJA

ПСИХОЛОГИЧЕСКИЕ ОСОБЕННОСТИ СОВРЕМЕННЫХ СТУДЕНТОВ КАК УСЛОВИЯ ФОРМИРОВАНИЯ БУДУЩЕГО СПЕЦИАЛИСТА.....	8
<b>Тиллашайхова Хосият Азаматовна</b>	
PEDAGOGLARNING TA'LIM SIFATINI OSHIRISHDA USLUBIY TAYYORGARLIGINING O'RNI .....	12
<b>Toshmatov Boboxon Egamshukurovich</b>	
BO'LAJAK PEDAGOGLARNI TAYYORLASHDA INNOVATSION PSIXOLOGIK YONDASHUVLAR.....	16
<b>Eshnazarova Farida Jo'raqulovna</b>	



## PEDAGOGLARNING TA'LIM SIFATINI OSHIRISHDA USLUBIY TAYYORGARLIGINING O'RNI

### Toshmatov Boboxon Egamshukurovich

Nizomiy nomidagi  
O'zMPU Psixologiya kafedrasida katta o'qituvchisi  
bobohonjontoshmatov@gmail.com

**Annotatsiya:** Maqolada zamonaviy ta'lim tizimida pedagoglarning uslubiy tayyorgarligi ta'lim sifatini oshirishning muhim omili sifatida tahlil etilgan. Tadqiqotda muammoli ta'lim texnologiyasining nazariy asoslari, uni o'quv jarayoniga tatbiq etish mexanizmlari va pedagogning metodik kompetensiyasi bilan o'zaro bog'liqligi yoritilgan. Muallif tomonidan o'qituvchining kasbiy mahorati, refleksiv faoliyati va ijodiy yondashuvining o'quvchi shaxsini rivojlantirishdagi ahamiyati asoslab berilgan. Shuningdek, muammoli o'qitish orqali talabalar tafakkurini faollashtirish, muammoli vaziyatlarda mustaqil yechim topish qobiliyatini rivojlantirishning psixologik-pedagogik jihatlari ham tahlil qilingan.

**Kalit so'zlar:** pedagog, muammoli ta'lim, uslubiy tayyorgarlik, talaba, pedagogik texnologiya, metod, refleksiya, innovatsion yondashuv.

**Abstract:** The article examines the methodological preparedness of teachers as a crucial determinant in improving the quality of modern education. It highlights the theoretical foundations of problem-based learning, the mechanisms of its implementation in the educational process, and its interrelation with the teacher's methodological competence. The study emphasizes the importance of pedagogical mastery, reflective practice, and creative approaches in fostering student personality development. Furthermore, the psychological and pedagogical aspects of enhancing students' critical thinking and their ability to find independent solutions in problem-based situations are analyzed.

**Key words:** pedagogue, problem-based learning, methodological preparation, student, pedagogical technology, method, reflection, innovative approach.

**Аннотация:** В статье рассматриваются вопросы методической подготовки педагогов как ключевого фактора повышения качества современного образования. Раскрываются теоретические основы проблемного обучения, механизмы его внедрения в учебный процесс и взаимосвязь с методической компетентностью преподавателя. Особое внимание уделено роли профессионального мастерства, рефлексивной деятельности и творческого подхода педагога в развитии личности обучающегося. Также проанализированы психолого-педагогические аспекты активизации мышления студентов и формирования у них способности к самостоятельному решению проблемных ситуаций в процессе обучения.

**Ключевые слова:** педагог, проблемное обучение, методическая подготовка, студент, педагогическая технология, метод, рефлексия, инновационный подход.

### KIRISH

Jamiyatning taraqqiyot darajasi, ilm-fan va texnologiyalarning jadal rivojlanishi, axborot asrining shakllanishi ta'lim tizimida tub o'zgarishlarni yuzaga keltirmoqda. Bugungi kunda ta'lim jarayoni nafaqat bilim berishga, balki mustaqil fikrlovchi, yangilik yaratuvchi, ijtimoiy faol va mas'uliyatli shaxsni shakllantirishga yo'naltirilmoqda. Shu boisdan, yoshlarni har qanday vaziyatni tezda tahlil qila oladigan, oqilona va samarali qarorlar qabul



qila biladigan, yuqori malakali mutaxassis sifatida tayyorlash zamonaviy pedagogik faoliyatning eng muhim vazifasiga aylanmoqda.

Endilikda pedagogdan nafaqat o'z fani bo'yicha chuqur bilimga ega bo'lish, balki ta'lim jarayonida ilg'or pedagogik texnologiyalarni qo'llay olish, muammoli o'qitish usullarini samarali tatbiq etish, talabalarda mustaqil fikrlash va ijodkorlikni rivojlantira olish talab etilmoqda. Shuningdek, pedagog o'zining kasbiy refleksiyasi, kommunikativ madaniyati va metodik mahorati orqali o'quvchi-talabalarda ijodiy fikrlash, muammoli vaziyatlarni tahlil qilish va amaliy yechim topish ko'nikmalarini shakllantira olishi zarur.

Vatan taraqqiyoti va xalq farovonligi, eng avvalo, barkamol avlodning intellektual salohiyatiga bog'liq. Shu sababli, bo'lajak mutaxassislarni ertangi kun talablari darajasida tayyorlash, ularning kasbiy kompetensiyalarini rivojlantirish hamda o'qituvchilarning uslubiy tayyorgarligini takomillashtirish bugungi ta'lim tizimining dolzarb masalalaridan biridir.

## MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Ta'lim sifatini oshirish va pedagoglarning uslubiy tayyorgarligini takomillashtirish masalalari jahon va mahalliy pedagogika fanida keng o'rganilgan. Xususan, bu borada J. Dewey (1938), L.S. Vygotskiy (1978), A.N. Leontyev (1975), B. Bloom (1956), J. Bruner (1966), C. Rogers (1983) singari olimlarning tadqiqotlari muammoli ta'limning nazariy asoslarini belgilab bergan. Dewey ta'lim jarayonini "faol tajriba" deb atab, o'quvchi o'zi bilishga faol jalb etilgandagina haqiqiy o'rganish sodir bo'lishini ta'kidlagan. Vygotskiy esa o'zining "yaqin rivojlanish zonasi" nazariyasida o'quvchi faoliyatini o'qituvchining rahbarlik yordami bilan yuqori bosqichga olib chiqish mumkinligini ilmiy asoslab berdi.

A.N. Leontyev ta'lim jarayonini faoliyat sifatida tushuntirib, o'quvchi shaxsining rivojlanishida faol ishtirok, maqsadga yo'naltirilgan topshiriq va ijtimoiy motivatsiyaning rolini alohida ta'kidladi. J. Bruner o'qitishda kognitiv faoliyatni rag'batlantiruvchi muammoli vaziyatlarning o'rni muhimligini qayd etgan, C. Rogers esa "shaxsga yo'naltirilgan ta'lim" konsepsiyasini ilgari surgan.

Zamonaviy o'zbek pedagogikasida ham bu masalalar chuqur tadqiq etilmoqda. V.K. Karimova (2014) o'qituvchi shaxsining psixologik tayyorgarligi va pedagogik mahorati ta'lim samaradorligiga bevosita ta'sir etishini ta'kidlagan. M. Ochilov (2018) o'z tadqiqotlarida ta'lim jarayoniga innovatsion texnologiyalarni joriy etish orqali o'quvchilarning mustaqil fikrlashini shakllantirish zarurligini asoslab bergan. S. Rahimov (2020) va N. Abdullaeva (2019) ishlarida esa muammoli ta'limning psixologik-pedagogik mexanizmlari, o'quv motivatsiyasi va refleksiya jarayonining ahamiyati tahlil etilgan.

## TADQIQOT METODOLOGIYASI

Ushbu tadqiqotning metodologik asoslari zamonaviy pedagogik psixologiya, ta'lim nazariyalari hamda muammoli ta'lim konsepsiyalariga tayanadi. Tadqiqotning asosiy maqsadi — o'qituvchilarning uslubiy tayyorgarligini baholash, muammoli ta'lim texnologiyalarini joriy etish samaradorligini aniqlash va pedagogik faoliyatda innovatsion yondashuvlarning o'rni hamda natijadorligini empirik jihatdan isbotlashdan iboratdir.

## TAHLIL VA NATIJALAR

Hozirgi ta'lim tizimida eng ko'p qo'llaniladigan samarali o'qitish texnologiyalaridan biri — bu muammoli o'qitish hisoblanadi. Muammoli o'qitish texnologiyasining samaradorlik darajasi keng bo'lib, u qator didaktik va psixologik vazifalar bilan belgilanadi. Uning asosiy vazifasi — o'quvchini faol bilish jarayoniga undash, o'qitish jarayoniga jalb etish hamda tafakkurda tadqiqot uslubini shakllantirishdan iboratdir. Muammoli o'qitish ijodiy, faol va mustaqil shaxsni tarbiyalash maqsadlari bilan uzviy bog'liq bo'lib, o'quvchi (yoki talaba) mustaqilligini reproduktiv o'qitish shakllariga nisbatan tobora rivojlantiradi.

Bugungi ta'lim tizimida ushbu texnologiyani keng qo'llash zarurati ortib bormoqda. Uning mohiyati shundan iboratki, o'qituvchi talabalar o'quv faoliyatida muammoli vaziyatni vujudga keltiradi va o'quv vazifalari, muammolari hamda savollarini hal etish orqali yangi bilimlarni o'zlashtirishning ilmiy-tadqiqot usullarini shakllantiradi. Muammoli o'qitishning mohiyatida inson faoliyatining qonuniyatlari, shaxs rivojlanish jarayonlari mujassamdir. Insonning bilish faoliyati jarayoni mantiqiy ziddiyatlarni hal etish orqali namoyon bo'ladi va bu jarayon o'qitishning asosiy didaktik tamoyillaridan biri — muammolilik bilan bevosita bog'liqdir.

Zamonaviy o'qitish jarayoni tahliliga ko'ra, psixolog va pedagog olimlarning fikricha, muammoli vaziyatning boshlanish nuqtasi — bu o'quvchida paydo bo'ladigan kutilmagan hayrat, emotsional ta'sir va bilishga qiziqishdir. Aynan shu psixik va hissiy holat inson tafakkurini faollashtiruvchi, ilmiy izlanishga undovchi asosiy turtkidir. Muammoli vaziyat maqsadga muvofiq tashkil etilgan o'qitish sharoitida, muayyan pedagogik vositalar orqali vujudga keladi. O'rganilayotgan mavzuning xususiyatlaridan kelib chiqib, bunday vaziyatlarni yaratishning maxsus usullarini ishlab chiqish zarur.

Shunday qilib, muammoli vaziyat shunchaki “fikrlashdagi to’siq” yoki “mashaqqat” holati emas, balki bilish maqsadlaridan kelib chiqqan aqliy taranglik holatidir. Bu holatda ilgari o’zlashtirilgan bilimlar izlari yangi vazifalarni hal etish jarayonida aqliy va amaliy harakat usullari bilan uyg’unlashadi. Har qanday mashaqqat muammoli vaziyat bilan bog’liq bo’lavermaydi, chunki yangi bilim avvalgi bilimlar bilan mantiqan bog’lanmasa, u muammoli vaziyatni hosil qilmaydi.

Muammoli vaziyatning o’ziga xos belgilari quyidagilardan iborat:

- Talabaga notanish fakt yoki holatning mavjudligi;
- Berilgan vazifalarni bajarishda talabaning shaxsiy manfaatdorligi va bilish ehtiyoji;
- Muammoli vaziyatni hal etishda mustaqil fikrlashga ehtiyoj sezilishi.

Muammoli vaziyatdan chiqish doimo muammoning mohiyatini anglash, uni nutqiy ifodalash va yechimni topish bilan belgilanadi. Mazmunan u, eng avvalo, talabalarning mustaqil aqliy faoliyati natijasi bo’lib, ularda intellektual mashaqqat sabablarini tushunish, ularga qarshi kurashish va muammoni fikr orqali ifodalash qobiliyatini shakllantiradi.

Bu jarayon izchil bosqichlarda namoyon bo’ladi: avvalo muammoli vaziyat vujudga keladi, so’ngra o’quv muammosi shakllanadi. O’quv muammosi uch tarkibiy qismdan iborat:

1. Ma’lum — berilgan vazifa asosidagi mavjud bilimlar;
2. Noma’lum — yangi bilimlarni shakllantirishga olib keluvchi jihatlilar;
3. Avvalgi bilimlar — talabalar ilgari egallagan tajribalar.

Ushbu uchlik o’quvchini qidiruv faoliyatiga undaydi. Talabaga noma’lum bo’lgan muammo beriladi, bunda yechim yo’li ham, natijasi ham aniq emas, biroq u ilgari o’zlashtirilgan bilim va ko’nikmalarga asoslanib, natijaga erishish yo’lini mustaqil izlay boshlaydi. Shunday qilib, o’quv muammosining asosiy belgisi — yangi bilim hosil qiluvchi noma’lumlik hamda izlanishni amalga oshirish uchun yetarli bilim zaxirasining mavjudligidir.

Endilikdagi asosiy vazifamiz — mustaqillikni mustahkamlash, Vatanimizning porloq istiqbolini yaratish, ilg’or mamlakatlar qatoridan munosib o’rin egallash, xalqimiz turmushini va madaniyatini yuksaltirishdir. Kelajakdagi farovonligimiz manbai esa mehnat, ilm va tafakkurda mujassam. Shu bois, davlatimiz rahbari yosh avlod tarbiyasiga, ularning ilm olishi va ma’naviy barkamol insonlar sifatida shakllanishiga alohida e’tibor qaratmoqda.

Bugungi kunda metodlarni samarali qo’llashning muhim mezonlaridan biri — bu muammoli vaziyatni vujudga keltirish va muammoni kun tartibiga qo’ya bilishdir. Mutaxassislar fikricha, muammoli o’qitish talabada mustaqillikni, fikrlash doirasini va ijodiy faollikni kengaytiradi. U talabalarni faol bilish jarayoniga jalb etib, tafakkurni ilmiy-tadqiqotga yo’naltiradi.

Muammoli vaziyat o’ziga xos o’qitish sharoitida, maqsadga muvofiq tarzda tashkil etilgan pedagogik vositalar orqali yuzaga keladi. Uning mohiyati shundaki, talaba ilgari tanish bo’lgan ma’lumotlarni yangi faktlar, hodisalar bilan taqqoslar ekan, muqobil yechimlar o’rtasida tanlov qilish zaruriyati paydo bo’ladi. Bu holat qaror qabul qilishda qiyinchilik tug’dirib, tafakkurni faollashtiradi va ijodiy izlanishga undaydi. Shuning uchun ham, istalgan o’quv jarayoni — ma’ruza, seminar yoki amaliy mashg’ulot bo’ladimi — o’qituvchi tomonidan muammo qo’yilishi yoki muammoli vaziyat yaratilishi katta ahamiyat kasb etadi.

Muammolar qo’yilish darajasiga ko’ra to’rt turga bo’linadi:

1. O’qituvchi muammoni o’zi qo’yadi, shakllantiradi va talabalarni yechim topishga yo’naltiradi.
2. O’qituvchi muammoli vaziyatni yaratadi, talabalar esa muammoni mustaqil shakllantiradilar va yechimni izlaydilar.
3. O’qituvchi muammoni ko’rsatmaydi, balki talabalarni u bilan ro’baru qiladi va ularni mustaqil faoliyatga yo’naltiradi.
4. Talabalar muammoni o’zlari anglaydilar, shakllantiradilar va yechim topishga intiladilar.

Mazkur metodning o’ziga xos jihati shundaki, u talabalar oldiga muammolar qo’yishni nazarda tutadi. Muammoli ma’ruza odatda savol — ya’ni muammo qo’yish orqali boshlanadi; ma’ruzachi uni izchil va mantiqiy tarzda hal etadi yoki yechim yo’llarini ko’rsatadi. Muammo o’quv materiali mazmuni bilan bevosita bog’liq bo’ladi.

Ta’lim jarayonida maqsadga erishish uchun muammoli o’qitishga quyidagi talabalar qo’yiladi:

- Muammoli o’qitish o’quvchilarning ehtiyojlarini qondirish va faolligini oshirishga xizmat qilishi;
- Taqdim etilgan muammo o’quvchilar uchun aniq, tushunarli va ahamiyatli bo’lishi;
- Qo’yilgan muammoning real hayot bilan bog’liqligi;
- Talabalarning hamkorlikdagi faol ishtirokini ta’minlash;
- Muammoga oid axborotlarni tahlil qilish va yechim ishlab chiqish imkoniyatining mavjudligi.

Bugungi kunda O’zbekistonda jahon ta’lim maydoniga integratsiyalashgan yangi ta’lim tizimi shakllanmoqda. Bu jarayon bilan bir vaqtda pedagogik nazariya va amaliyotda sezilarli o’zgarishlar yuz bermoqda. Ta’limdagi yondashuvlar tarkibi yangilanib, yangi pedagogik mentalitet shakllanmoqda. Ta’lim mazmuni endilikda individuallashtirilgan dasturlar, axborot texnologiyalaridan foydalanish, bozor amaliyotiga mos ijodiy yondashuvlar bilan boyimoqda.



Axborotning an'anaviy shakllari — og'zaki, yozma, telefon aloqalari o'rnini endilikda global telekommunikatsiyalar egallamoqda. Pedagogik ta'lim texnologiyalarining psixologik-pedagogik takomillashuvining asosiy yo'nalishlari quyidagilar bilan ifodalanadi:

1. Yodlashdan eslab qolish funksiyasiga o'tish, ya'ni o'zlashtirilgan bilimni amalda qo'llash imkonini beruvchi aqliy rivojlanish jarayoniga o'tish.

2. Bilimning assotsiativ-statistik modelidan aqliy harakatning dinamik tizimlariga o'tish.

3. O'rtacha talabalarga yo'naltirilgan yondashuvdan differensial va individuallashtirilgan dasturlarga o'tish.

4. Tashqi motivatsiyadan ichki ma'naviy va irodaviy o'zini boshqarish bosqichiga o'tish.

Zamonaviy didaktika ta'lim samaradorligini oshirishga, yangi g'oyalar va texnologiyalarni ilmiy asoslashga qaratilgan. Bu jarayonda turli pedagogik tizimlar va o'qitish texnologiyalari o'zaro uyg'unlikda rivojlanmoqda. Davlat ta'lim tizimida qo'shimcha, muqobil va innovatsion shakllar joriy etilmoqda. Bunday sharoitda pedagog o'z vaqtini ilgari ma'lum bo'lgan narsalarni takror ochishga emas, balki zamonaviy innovatsion texnologiyalarni egallash va ularni o'z faoliyatida qo'llashga sarflashi lozim. Chunki bugungi kunda raqobatbardosh, bilimdon mutaxassis bo'lish uchun ta'lim texnologiyalarining turli jihatlarini puxta o'zlashtirish zarur.

Pedagogik texnologiya tushunchasi uch asosiy aspektda namoyon bo'ladi:

1. Ilmiy aspekt — pedagogik texnologiya ta'lim usullari, tarkibi va maqsadlarini ishlab chiqadi hamda pedagogik jarayonlarni loyihalashtiradi.

2. Protsessual-tavsifiy aspekt — ta'limda rejalashtirilgan natijalarga erishish uchun maqsad, mazmun, usul va vositalar tizimini tavsiflaydi.

3. Protsessual-amaliy aspekt — pedagogik jarayonning amaliy amalga oshirilishi, barcha metodik, instrumental va texnologik vositalarning faol qo'llanishini o'z ichiga oladi.

## XULOSA VA TAKLIFLAR

Bugungi kunda ta'lim samaradorligini oshirish, zamonaviy pedagogik texnologiyalarni ilmiy asosda ishlab chiqish va amaliyotga tatbiq etish dolzarb masalaga aylanmoqda. Shu nuqtayi nazardan, har bir pedagogdan nafaqat o'z fanini chuqur bilish, balki ta'lim jarayoniga innovatsion yondashuvni tatbiq etish, o'quvchilarni mustaqil va ijodiy fikrlashga yo'naltirish talab etiladi. Zamonaviy mutaxassis bo'lish uchun pedagogik texnologiyalarning barcha komponentlarini chuqur o'rganish, ularni ilmiy tahlil asosida amaliy faoliyatga tatbiq etish zarurdir.

Pedagogik texnologiyaning muvaffaqiyati, avvalo, pedagogning kasbiy mahorati, metodik tayyorgarligi, psixologik madaniyati va shaxsiy fazilatlariga bog'liq. Tajriba natijalari shuni ko'rsatadiki, muammoli o'qitish texnologiyasi o'quvchilarning bilim olish jarayonini faollashtiradi, tafakkurini chuqurlashtiradi va ularda ilmiy-tadqiqot uslubini shakllantiradi. Ushbu texnologiya, o'z navbatida, o'qituvchi faoliyatida refleksiya, kuzatuvchanlik, tahliliy fikrlash va o'z ishini tahlil qila olish ko'nikmalarini rivojlantiradi.

Xulosa qilib aytganda, muammoli o'qitish — bu ta'lim jarayonini faol, tadqiqotchilik ruhida tashkil etuvchi ilg'or metodik tizimdir. U o'quvchining faolligini oshiradi, mustaqil fikrlashni shakllantiradi, o'z bilimni real vaziyatlarda qo'llashga o'rgatadi. Shu bilan birga, pedagogning metodik tayyorgarligi, innovatsion yondashuvi va kasbiy kompetensiyasi ta'lim sifati va samaradorligining asosiy ko'rsatkichlari sifatida namoyon bo'ladi.

## FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Golish L.V., Fayzullaeva D.M. Pedagogik texnologiyalarni loyihalashtirish va rejalashtirish: O'quv uslubiy qo'llanma.— T.: "Iqtisodiyot" 2019.
2. Abdullaeva R.M., Karimova Q.A. Ta'lim jarayonida interfaol usullardan foydalanish samaradorligi. Raqamli iqtisodiyot: iqtisodiy rivojlanish tendensiyalarini modellashtirish va zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini qo'llash istiqbollari/ Respublika ilmiy-amaliy konferensiyasi Toshkent. 2019. 409 b.
3. Dewey, J. (1938). *Experience and Education*. New York: Macmillan.
4. Vygotsky, L.S. (1978). *Mind in Society: The Development of Higher Psychological Processes*. Harvard University Press.
5. Leontiev, A.N. (1975). *Activity, Consciousness, and Personality*. Moscow: Progress.
6. Bloom, B. (1956). *Taxonomy of Educational Objectives*. New York: Longman.

- 
- 13.00.00 Pedagogika fanlari
  - 13.00.01 Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta'limotlar tarixi
  - 13.00.02 Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (sohalar bo'yicha)
  - 13.00.03 Maxsus pedagogika
  - 13.00.04 Jismoniy tarbiya va sport mashg'ulotlari nazariyasi va metodikasi
  - 13.00.05 Kasb-hunar ta'limi nazariyasi va metodikasi
  - 13.00.06 Elektron ta'lim nazariyasi va metodikasi (ta'lim sohaları va bosqichlari bo'yicha)
  - 13.00.07 Ta'limda menejment
  - 13.00.08 Maktabgacha ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi
  - 13.00.09 Ijtimoiy pedagogika
  - 07.00.00 Tarix fanlari
  - 19.00.00 Psixologiya fanlari
  - 01.00.00 Fizika-matematika fanlari
  - 02.00.00 Kimyo fanlari
  - 03.00.00 Biologiya fanlari
  - 09.00.00 Falsafa fanlari
  - 10.00.00 Filologiya fanlari
  - 11.00.00 Geografiya fanlari



# MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI

**Mas'ul muharrir:** Ramzidin Ashurov

**Ingliz tili muharriri:** Murod Xoliyorov

**Musahhih:** Alibek Zokirov

**Sahifalovchi va dizayner:** Iskandar Islomov

---

**2025. № 11**

---

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

"Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali 26.09.2023-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №C-5669363 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.  
**Litsenziya raqami: № 136361.**

**Manzilimiz:** Toshkent shahar, Yunusobod tumani  
19-mavze, 17-uy.